



**ZUHRA UMAROVA**

**BOSHLANG'ICH  
SINF O'QUVCHILARIDA  
PEDAGOGIK KONELIKTLARNI  
BARTARAF ETISH**



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ZUHRA UMAROVA

**BOSHLANG'ICH SINIF  
O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK  
KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH**

*Monografiya*

4464/3 x

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**

TOSHKENT  
«ISHONCHLI HAMA

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM,  
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
**AXBOROT RESURS MARKAZI**  
1-FILIALI

2021

UO'K 373.21  
KBR 74.10  
U 47

**Umarova Zuhra**

**Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish** [Matni]: monografiya / Z. Umarova. - Toshkent: "ISHONCHLI HAMKOR", 2021. - 88 b.

**Mas'ul muharrir:**

**Axmedova Mukarram Tursunaliyevna** – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.

**Tagrizchilar:**

**Shukurullo Qo'ldoshevich Mardonov** – pedagogika fanlari doktori, professor;

**Mamanazar Irgashevich Djumayev** – Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari nomzodi.

Mazkur monografiya bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari va amaliy faoliyatdagi o'qituvchilarga mo'ljallangan bo'lib, unda boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, shakllari va turlari tahlil qilib berilgan.

Monografiya Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti 13-sonli navbatdan tashqari kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7091-3-3

© Z. Umarova, 2021.

© "ISHONCHLI HAMKOR", 2021.

## MUNDARIJA

1. BOSH BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNING HAZARIY AHOBIARI .....	4
1.1. Konfliktologiyaning umumiy xususiyatlari .....	8
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar – muhim pedagogik muammo sifatida .....	16
1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining nazariy masalalari .....	28
<b>II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH</b>	
<b>1.1. NISOLIGIYASI</b> .....	<b>41</b>
1.1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyati .....	41
1.1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining didaktik imkoniyatlari .....	47
1.1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etilishning texnologik omillari .....	56
<b>II BOB. BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA PEDAGOGIK KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISH NAMUNADORLIGI</b> .....	<b>66</b>
1.1. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari dasturi .....	66
1.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov ishlari o'tkazish tizimi .....	71
1.3. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish bo'yicha tajriba-sinov natijalari .....	77
<b>UMUMIY XULOSA</b> .....	<b>82</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI</b> .....	<b>85</b>

## KIRISH

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida *Uchinchi Renessansni* barpo etish jarayoni boshlandi. Mamlakatimiz sivilizatsiyasi tarixida Birinchi Renessans IX-XII asrlarda, Ikkinchi Renessans XIV-XV asrlarda kechganligi ma'lum.<sup>1</sup> Uchinchi Renessans XX asrning I choragida jaddi ma'rifatparvarlari tomonidan boshlangani va uni yangi O'zbekiston sharoitida barpo etish qabul qilindi.<sup>2</sup> Bu jarayonda boshlang'ich ta'limni rivojlantirish va uning vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama barkamol shaxslar sifatida voyaga yetkazish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu sababli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrda qabul qilingan PF-6108-sonli "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilmi-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farnomida bu borada quyidagi vazifalar qo'yilgan: "boshlang'ich sinflarda fanlarni o'zaro uzviy bog'lanishi hisobiga ularni optimallashtirish; boshlang'ich ta'lim o'quv fanlarining o'qitilishini kuchaytirish va boshlang'ich sinf o'quvchilarini savodxon, bilimli, malakali, ko'nikmeli hamda hayotga tayyorgarlik ruhida tarbiyalash". Ushbu vazifalarni amalga oshirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida (7-11 yoshli shaxslarda) uchraydigan *pedagogik konfliktlarni* aniqlash, ularning ko'rinishlari, shakllari va turlarini belgilash, hal etish yo'llarini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Chunki bularning barchasi Uchinchi Renessansni barpo etish jarayonida boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning muhim faktorlaridan hisoblanadi.

*Pedagogik konfliktlar*-bu o'quvchi shaxsining ongi, faoliyatining shakllanishi va ta'lim-tarbiya olish jarayonidagi ziddiyatlar, nizolar va to'qnashuvlar majmui bo'lib,<sup>3</sup> uning boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan ko'rinishlari, shakllari va turlari o'ziga xos xususiyatlariga ega bo'ladi. Shu jihatdan boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarda uchraydigan pedagogik konfliktlarni o'rganish, tadqiq etish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish dolzarb bo'lib turibdi. Mazkur muammoning zaruriyati quyidagilar bilan belgilanadi: *birinchidan*,

<sup>1</sup> Xayrullayev M.Uyg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. -T.: "Fan". 1971. Konrad N.Zapad i Vostok. -M.: "Nauka" 1993 va h.k.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan so'zlagan Murojaat nutqi"// "Yangi O'zbekiston" gazetasi 2020 yil 1 oktyabr soni.

<sup>3</sup> Arnedova M. Pedagogik konfliktologiya. -T.: TDP.U. 2017. 12-bet.

boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning zaruriy asoslarini tahlil qilib; *Ikkinchidan*, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini yaratish; *uchinchidan*, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini amaliyotda qo'llash metodikasini ishlab chiqish; *to'rtinchidan*, mazkur masala bo'yicha eng maqbul yondashuvlardan biri kompyuter texnologiyasini shakllantirish; *beshinchidan*, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan texnologiyani amaliyotga tabiiq etish asoslarini yaratish.

O'zbekistonlik pedagog olimlardan J.Yo'ldoshev, R.Jo'rayev, B.Ab-dullayeva, Sh.Mardonov, R.Mavlonova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, H.Mahmova, M.Quronov kabilarning tadqiqotlarida umumta'lim maktablari o'quvchilarini muvotib tarbiyalash, ularga zamonaviy darajada ta'lim berish, o'quvchilarning ma'naviy, axloqiy va estetik ongini shakllantirish, o'quvchilarda uchraydigan noaxloqiy xatti-harakatlarni aniqlash, bartaraf etish hamda boshlang'ich ta'limni rivojlantirishning nazariy, metodologik va jihatdan amaliy asoslari tahlil qilib o'tilgan.

O'zbek pedagogik merosida Ahmad Yassaviyning (XII asr) hikmatlarida shaxsda kechadigan ichki ziddiyatlar, Alisher Navoiyning (XV) dostonlarida shaxs ongi va qalbdagi to'qnashuvlarni bartaraf etishning badiiy ko'lamli, haroratdan Mastrabning (XVIII asr) she'rlarida shaxs va uning hayotida uchraydigan nizoli vaziyatlar hamda jaddi ma'rifatparvarlarning (XX asr I choragi) asarlarida ta'lim oluvchilar duch keladigan jittimiy muvotib to'g'risida o'ziga xos tahlillar amalga oshirilgan. Shuningdek, pedagogik bilimni tadqiqotchiligiida kam o'rganilgan aziz-avliyolardan hisoblanadigan Kubroning (XII asr) asarlarida shaxs qalbi va ruhiyatidagi ziddiyatlar, Mahbuddin Naqshbandning (XIV asr) qarashlarida inson kamilotiga to'siq bo'luvchi hayotiy iktilanishlar va to'qnashuvlar, Xoja Akbar Valiyning (XV asr) asarlarida esa shaxs o'zligida yuzaga keladigan ichki harakat va ularni bartaraf etishning vositalari to'g'risida muhim tavsifatlar berilgan.<sup>1</sup>

Konflikt XVII-XX asrlarda faoliyat yuritgan pedagog faylasuf va olimlardan Ya.Komenskiy, I.Pistolotsi, K.Ushinskiy, J.Dyui kabilarning asarlarida shaxs hayotida yuzaga keladigan jittimiy, axloqiy va ruhiy muvotibdagi konfliktlar o'ziga xos tarzda ko'rsatib o'tilgan.

<sup>1</sup> Mazkur mutafakkirlarning tegishli asarlari tadqiqotimizning "Foydalanilgan manbalar" bo'limida keltirilgan.

Konfliktologiya hodisasi va uning nazariy masalalari XX asr II yarmidan boshlab G'arb olimlari tomonidan ilmiy tahlil etila boshlandi. Bunda konfliktologiyaning nazariy masalalari, uning guruhlar, xalqlar va davlatlar o'rtasidagi shakllarini belgilashga asosiy e'tibor qaratilgan.<sup>1</sup> Ayni paytda, XX asrning 70-yillaridan boshlab umumta'lim maktablari o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlar ko'rinishlari tadqiq etila boshlandi.<sup>2</sup> Bularning barchasi konfliktologiya va uning pedagogik turlarini idrok etish imkonini beradi.

O'zbek pedagogik ilmiy-tadqiqotchiligiida ilk bor pedagogik konfliktlar masalasi umumiy nazariy jihatdan M.T.Axmedova tomonidan tahlil qilib berilgan.<sup>3</sup> Pedagog olimi mazkur tadqiqotda pedagogik konfliktologiyaning predmeti, maqsadi, vazifalari, ilmiy asoslari, turlari, ularni oldini olishda mulqot madaniyati, bu jarayonda pedagogik-psixologik xizmat va birgalikda faoliyat omili masalalarini yoritib bergan.

Shuningdek, so'rsiolog va siyosatshunos olimlardan R.Jumayev, B.O'tanov kabilar tomonidan konfliktologiya nazariyasi masalalari tadqiq etilgan.<sup>4</sup>

Ayni paytda, boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasi muammosi maxsus dissertatsiya tarzida tadqiq etilgan emas.

Monografiyaning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlar muammosini o'rganish va ularni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur monografiyada quyidagi vazifalar qo'yildi:

- konfliktologiya hodisasining umumiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning muhim pedagogik muammo ekanligi, ularni bartaraf etishning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasini ishlab chiqish zaruriyatini asoslash;

<sup>1</sup> Qarang: Anisupov A., Shipilov A. Slovars konfliktologo. –M., 1995.

<sup>2</sup> Qarang: Afonkova V. Konflikta v kollektive starshklassnikov i puti ix preodoleniya. Diss...kand...ped...nauk.-M., 1975. Krogus N.Lichnost v konflikte. – Saratov.: SGU. 1976 va h.k.

<sup>3</sup> Axmedova M. Pedagogik konfliktologiya.-T.:TDDPU. 2017.

<sup>4</sup> Jumayev R.Z. Konfliktologiya asoslari:asosiy tushuncha va tamoyillar.-T., 2015. O'tanov B. Konfliktologiya. –T., 2013.

1 boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etish texnologiyasining etdakatik imkoniyatlarini tahlil qilish;

2 boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Kompyuterli texnologiyasini ishlab chiqish;

3 tadqiqot natijalari bo'yicha pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va ularning natijalari asosida metodik tavsiyalarni shakllantirish.

Monografiyada quyidagi natijalarga e'tibor qaratildi.

1 pedagogik ilmiy-tadqiqotchilikda ilk bor boshlang'ich sinf o'quvchilarida uchraydigan pedagogik konfliktlarning ko'rinishlari, etdahlari va turlari o'rganildi;

2 boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishni aniqlash yo'llari belgilandi;

3 boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning Kompyuterli texnologiyasi yaratildi;

4 boshlang'ich sinf o'quvchilarida pedagogik konfliktlarni bartaraf etishning texnologiyalarini amalda qo'llash mexanizmlari ishlab chiqildi.

Monografiya kirish, ikki bob, olti paragraf, xulosa va tavsiyalar hamda tashkilotdigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.